

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
SAMARQAND XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDiy MARKAZI

TABIIY VA ANIQ FANLAR METODIKASI KAFEDRASI

Oqnozarov T.

TOTAL COMMANDER BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI

Uslubiy ko'rsatma
(Umumta'lim maktablari informatika fani o'qituvchilari uchun)

Samarqand – 2020 yil

***Oqnazarov T. Total Commander bilan ishlash texnologiyasi.
Uslubiy ko'rsatma. - SamXTXQTMOHM, Samarqand, 2020 yil. - 16
bet.***

Taqrizchilar:

***J.Mannabov, SamXTXQTMOHM «Tabiiy va
aniq fanlar metodikasi» kafedrasi o'qituvchisi.***

***A.Abdullayev, SamDU «Ta'limda komputer
texnologiyalari» kafedrasi dotsenti.***

Soʻz boshi

Taʼlim tizimida har bir fanning oʻqitish mazmunini qayta tahlildan oʻtkazish va uni tubdan isloh qilish nuqtai nazaridan yondashuv zarur boʻladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan shu narsa maʼlumki, bozor iqtisodi sharoitida axborot tizimining qanchalik suratda takomillashuvi davlat tizimining ravnaq topish darajasini belgilashi maʼlum. Shu maʼnoda, axborotlarning ishonchliligi, ularning oʻz vaqtida tayyorlanishi koʻp jihatdan kompyuter dasturchilarning mukammal darajada bilishligiga bogʻliq, chunki bu uch vosita bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan holda faoliyat koʻrsatadi.

Shu narsa quvonchliki, Respublikamizni mustaqillikka erishuvi natijasida hozirgi kunda barcha oʻquvchilar va talabalar zamonaviy kompyuterlardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻldilar. Shu bois ham, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani barcha oʻquv yurtlarida oʻqitiladigan kompyuter savodxonligi borasidagi uzluksiz dastur tizimiga kiritilgan Davlat taʼlim konsepsiyasiga asoslanadi.

Bunday ulkan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda oʻqituvchi va talabalarga davlat tilida kerakli oʻquv adabiyotlarini yetkazish alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mustaqil respublikamizda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish borasida bir qancha tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan boʻlib, shulardan biri, kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va


texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurishdan iboratdir.

Qobiq-dastur – operatsion sistema boshqaruvida ishga tushiriladigan va foydalanuvchiga shu operatsion sistema bilan ishlashga ko‘maklashadigan dasturdir. Eng birinchi ommalashgan qobiq-dasturlardan biri **Norton Commander** deb nomlanadi. Bu qobiq-dastur amerikalik mashhur dasturchi Piter Norton tomonidan ishlab chiqildi va juda tez ommalashib ketdi. Hozirgi kunda keng tarqalgan **Windows Commander**, **Total Commander**, **Far manager** kabi qobiq-dasturlar Norton Commander dasturining asosiy ish tamoyillarini o‘zida saqlab qolgan.

Norton Commander kompyuter ekranida disk, katalog va fayllar strukturasi ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatib turadi. Ma’lumki, matnli interfeysda operatsion sistemaning buyruqlarini kompyuterga kiritish ko‘p mehnat, vaqt va qunt talab qiladi. Norton Commander foydalanuvchini bu mehnatdan va operatsion sistemaning o‘nlab buyruqlarini doimo yodda saqlashdan xalos etdi. Mazkur dasturning eng afzal tomonlaridan biri – u operatsion sistema buyruqlaridan oson va samarali foydalanish imkonini beradi.

Norton Commanderdan foydalanuvchi qobiq-dasturni tark etmasdan turib, biror dasturni tuzishi yoki matnni tayyorlashi, ularni tahrirlashi va ishga tushirishi mumkin. Norton Commander foydalanuvchi kiritgan buyruqlarni esda saqlab boradi va ishlash jarayonida yana shu buyruqlardan foydalanishga to‘g‘ri kelsa, ularni takroran klaviatura orqali termasdan amalga oshirish imkonini beradi. Foydalanuvchi tomonidan tanlangan operatsion sistema buyrug‘i yoki

amaliy dastur bajarib bo'lingandan so'ng yana Norton Commanderda qaytiladi.



Qobiq-dasturlar asosan quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- diskdan kataloglar ro'yxatini ekranga to'liq **chiqarish**;
- fayllardan nusxa ko'chirish;
- fayllarni qayta nomlash;
- fayllarni o'chirish;
- kataloglarning pog'onalik tuzilmasini ko'rish;
- bir katalogdan boshqa kataloglarga o'tish;
- kataloglar hosil qilish;
- katalogni qayta nomlash va o'chirish;
- matnli fayllarni tahrir qilish va boshqalar.

Total Commander dasturi Windows bilan ishlashni yengillashtirishdan iborat. Bu dastur fayllar va papkalar bilan asosiy amallarni qidirish, nusxa olish, [qayta nomlash](#), o'chirish kabilarni soddaroq, qulayroq va yaqqolroq bajaradi.

Total Commander turli funksiyalarni bajaradi, xususan:

- diskdagi kataloglar ro'yxatini yaqqol ko'rsatadi.

- diskdagi kataloglar daraxtini ko'rsatish, kataloglarni yaratish, qayta nomlash, o'chirish imkoniyatlariga ega.

- fayllar ustida nusxa ko'chirish, qayta nomlash, joyini o'zgartirish va o'chirish komandalarini qulayroq bajaradi.


- turli [matnli fayllar](#), hujjatlar, arxiv fayllar, ma'lumotlar bazasi matnlarini ko'rish, matnli fayllarni tahrir qilish imkoniga ega.

Total Commander (Windows Commander) dasturi WINDOWS operatsion tizimi bilan ishlash uchun eng ommaviy dastur-qobiqlardan biridir, u Windows tizimida foydalanuvchi disklarni va disklardagi ma'lumotlarni, papkalarni (kataloglarni) ko'radi, fayllarni o'chiradi, nusxa oladi, [qayta nomlaydi](#), dasturni ishga tushiradi va hokazo.


Total Commander ekranda buyruqni yoki faylning nomini tanlash yetarli, Enter tugmasini, funksional tugmasini yoki sichqonchani shiqirlatish kerak va kerakli jarayon bajariladi.

Total Commander bilan birgalikda matnli fayllarni va boshqa hujjatlarni tahrir qilish va ko'rib chiqish uchun dasturlar yetkazib beriladi.

Total Commander dasturini yuklash uchun "Пуск" menyusidan "Все программы" –Total Commander - dasturi tanlanadi.



Total Commander dasturi ishga tushirilgandan keyin oynaning yuqori qismida menyular qatori, disklarni tanlash tugmalari, ikkita ramka bilan chegaralangan to‘g‘ri to‘rtburchakli oyna paydo bo‘ladi.



Ekraning pastki satrlarida buyruqli satr va F3-F8, Alt+F4 boshqarish tugmalari joylashgan:


F3 o'qish (View, **F3 Просмотр**) - kursor bilan tanlangan faylni ko'rib chiqish.


F4 to'g'rilash (Edit, **F4 Правка**) - kursor bilan tanlangan faylni tahrir qilish.

F5 nusxa (Copy, **F5 Копирование**) - kursor bilan tanlangan papkani (katalogni) yoki fayllarni nusxalash.

F6 nom(Rename, **F6 Перемещение**) - kursor bilan tanlangan papkani (katalogni) yoki fayllarni qayta nomlash yoki siljitish(siljitish boshqa panelda ochilgan papkada amalga oshiriladi).

F7 katalog - yangi papka (katalog, ) yaratish.

F8 o'chirish (Delete, )- kursor bilan tanlangan faylni (bo'sh katalogni) o'chirish.

Alt+F4 chiqish(Quit, )- Total Commander dasturidan chiqish.

Fayllar to'g'risidagi ma'lumotlarni chiqarishning 4 shakli mavjud: to'liq, qisqa, izoh va andoza. To'liq shaklda o'ng tarafda fayl o'lchami baytlarda, faylni yaratish yoki oxirgi o'zgartirilgan sanasi va vaqti chiqariladi. Qisqa shaklda faqat fayl nomi chiqariladi.

<input type="checkbox"/>	Краткий	Ctrl+F1
<input checked="" type="checkbox"/>	Подробный	Ctrl+F2
<input type="checkbox"/>	Комментарии	Ctrl+Shift+F2
<input type="checkbox"/>	Просмотр эскизов	Ctrl+Shift+F1

<input checked="" type="checkbox"/>	Краткий	Ctrl+F1
<input type="checkbox"/>	Подробный	Ctrl+F2
<input type="checkbox"/>	Комментарии	Ctrl+Shift+F2
<input type="checkbox"/>	Просмотр эскизов	Ctrl+Shift+F1

<input type="checkbox"/>	Краткий	Ctrl+F1
<input type="checkbox"/>	Подробный	Ctrl+F2
<input checked="" type="checkbox"/>	Комментарии	Ctrl+Shift+F2
<input type="checkbox"/>	Просмотр эскизов	Ctrl+Shift+F1

<input type="checkbox"/>	Краткий	Ctrl+F1
<input type="checkbox"/>	Подробный	Ctrl+F2
<input type="checkbox"/>	Комментарии	Ctrl+Shift+F2
<input checked="" type="checkbox"/>	Просмотр эскизов	Ctrl+Shift+F1

«Заголовки табулятор» paneli bo'yicha papka (katalog) va fayllar nomlarini sozlashda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- nomlarni **alifbo tartibida**;
- kengaytmalarni **alfavit tartibida**;
- fayllar o'lchanining kamayishi tartibida.
- faylning yaratilish sanasi va vaqtining kamayishi tartibda.

Fayllar va papkalar (kataloglar) ustida ba'zi amallar bajarish

Rang bilan tasvirlanadigan (kursor bilan ajratilgan) fayl yoki katalog aktiv yoki ajratilgan deyiladi.

Имя	Тип	Размер	Дата
[taqdumotlar]	<Папка>		26.01.2020 21:38
[System Volume Information]	<Папка>		22.08.2013 13:00
[serial]	<Папка>		05.02.2020 11:47
[Sardor&Matluba]	<Папка>		02.08.2018 10:17
[Sanjar]	<Папка>		18.07.2020 09:40
[samsung toj]	<Папка>		04.11.2018 10:47
[rasmlar]	<Папка>		03.06.2020 22:00
[Onlayn maktab]	<Папка>		04.10.2020 20:16
[Namoz]	<Папка>		26.11.2019 10:20
[MULTIK]	<Папка>		26.04.2019 13:17
[МТТ]	<Папка>		31.05.2020 14:50

Birdaniga bir nechta fayllarni ajratish mumkin - Insert tugmasini bu fayllarni nomlariga bosish yo'li bilan juda oddiy bajariladi.

Kursorni boshqa panelga ko'chirish uchun **Tab** tugmasini bosish kerak, Bosh papka tarkibini chiqarish uchun kursorni uning nomiga o'rnatish va **Enter** tugmasini bosish kerak.

Fayl yoki papka (katalog) ustida biror amalni bajarish uchun kursorni uning nomiga o'rnatish va funksional tugmalardan bitgasini yoki **Enter** tugmasini bosish kerak.

Total Commander panellarini boshqarish

[Tab] - Joriy panelni o'zgartiradi.

[Ctrl]+[U] - Panellarning o'rnini almashtiradi.

[Alt]+[F1] - Chap panelda disklar ro'yxatini chiqaradi.

[Alt]+[F2]- O'ng panelda disklar ro'yxatini chiqaradi.

Paneldagi fayl va papkalar (kataloglar) ro'yxati

[Ctrl]+[F3]- fayl va papkalarni nom bo'yicha tartiblaydi.

[Ctrl]+[F4]-fayl va papkalarni kengaytma bo'yicha tartiblaydi.

[Ctrl]+[F5]-fayl va papkalarni vaqt bo'yicha tartiblaydi.

[Ctrl]+[F6]-fayl va papkalarni hajm bo'yicha tartiblaydi.

[Ctrl]+[F7]-kataloglarning tartiblanmagan ro'yxatini beradi.

Funksional tugmachalardan foydalanish

[F1]-Total Commander dasturi haqida qisqacha ma'lumotni beradi.

[F2]-foydalanuvchi ko'rsatgan komandalar ishini taxminlaydi.

[F3]-fayl matnini ekranga chiqaradi.

[F4]-faylni tahrir qilish imkoniyatini beradi.

[F5]-faylning nusxasini ko'chiradi.

[F6]-faylni qayta nomlaydi yoki boshqa katalogga ko'chiradi.

[F7]-yangi papka tashkil etadi.

[F8]-tanlangan fayl yoki papkani o'chiradi.

[Alt]+[F3]-matnli faylni tezroq chiqaradi

[Alt]+[F4]-total commander dasturidan chiqadi..

[Alt]+[F5]-ajratilgan fayllarni arxivga joylaydi

[Alt]+[F6]-arxivdagi faylni qayta tiklaydi.

[Alt]+[F7]-diskda faylni chiqaradi.

[Alt]+[F9]-arxivdagi faylni qayta tiklaydi.

[Alt]+[F10]-kataloglar daraxtini ta'minlaydi.

Total Commander matn muharriri

Operatsion qobiqda soʻzlangan **matnli muharriri bor**, u uncha murakkab boʻlmagan hujjatlarni tuzish va tahrir qilish uchun juda qulaydir.

Muharrirlar bilan ishlashda bajariladigan asosiy jarayonlar quyida tushuntirilgan:

- ajratilgan matnli fayl bilan ishlash uchun muharrirni chiqarish-F4 tugmasini bosish kerak.
- yangi faylni yaratish va tahrir qilish Ctrl+N tugmalarini bosish kerak.
- tahrir qilingan faylni saqlash F2 tugmasini bosish kerak.
- muharrirdan chiqish Esc tugmasini bosish kerak.
- ajratilgan blokni kursorning joriy holati bilan koʻrsatilgan joyga nusxalash F5 tugmasini bosish kerak.
- ajratilgan blokni oʻchirish F8 tugmasini bosish kerak.
- matnni namuna boʻyicha kursordan keyin qidirish Shift+F3 tugmasini bosish kerak.
- matnni namunalar boʻyicha kursordan oldindan qidirish va almashtirish Ctrl+R tugmasini bosish kerak.
- belgilangan satrni oʻchirish delete yoki F8 tugmalarini bosish kerak.
- yangi satrga qoʻyish-Enter tugmasini bosish kerak.
- matn ichida kursorni harakatlantirish kursorni boshqarish tugmalari bilan amalga oshiriladi.

Oqnazarov T.

Total Commander bilan ishlash texnologiyasi

Uslubiy ko'rsatma

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

«Cambria» garniturasida. Ofset bosma usuli.

2 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma № ___/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

